



O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Meyliqulova Dilorom Musurmonovna

Qashqadaryo viloyat G'uzor tumani 20-umumta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10653210>

Annotatsiya. Yoshlarni tarbiyalash jarayonida ma'naviy-intellektual rivojlantirish sifatlarini aniqlashning aniq maqsadi va vazifalari ishlab chiqilgan. O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, nazorat va baholash jarayonini o'quvchi bilimini boyitishga, ular shaxsini rivojlanishiga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Ta'lim texnologiyasi, didaktik texnologiya, pedagogik texnologiya, metod, Davlat ta'lim standartlari, Pedagogika, tarbiya, ma'naviy-intellektual.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday taassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish lozim. O'quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash o'quvchining yili davolida muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, ba'zan, tasodifan tekshirishlarning oldini oladi va tartibli, doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beradi. Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi borligini alohida uqtiradi. 1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab Davlat ta'lim standartlari qanday bajarilayotganligini nazorat qilinadi va vazifalar belgilanadi. 2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi, talabalarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan o'quvchining yurtilari oldida turgan ta'limiy maqsad bajariladi. 3. Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham o'zlashtirishni nazorat qilish ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Nazorat jarayonida uning yozma, og'zaki va amaliy metodlaridan keng foydalanilmoqda. O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchunqulay bo'lgan yo'llarni, metod, o'qitish shakllari va vositalarini takomillashtirib boradi. Shu boisdan ham «pedagogik texnologiya», «didaktik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi» atamaları qatoridan «pedagogik innovatsiyalar» atamasi mustahkam o'rin olmoqda. O'zaro ta'sir natijasida nazorat etish vaqt nuqtayi nazaridan uch turli bo'ladi. Joriy nazorat-har bir darsda uzoq va yaqindan o'lilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini tekshirish demakdir. Unda nazorat savollar





berish, qoidalar, ta'riflarga oid ma'lumotlar keltirish, berilgan materiallarni tahlil etish, mavzularning mazmunini ochib berish, qisqa muddatli munozaralar tashkil etish, o'quv topshiriqlarini bajartirish kabi metodlardan foydalaniladi. Joriy nazorat qisqa muddatda o'tkazilishi bilan xarakterlanadi. Oraliq nazorat-o'quv fanining bir bo'limi, katta qismi o'tib bo'lingandan keyin tashkil etiladigan tekshirishdir. Unga alohida o'quv soati ajratiladi. Oraliq nazoratda o'rganilgan bo'lim mazmuniga mos savollar tizimiga javob olinadi, o'quv tizimi topshiriqlari bajartiriladi, uzoq muddatni oladigan munozara o'lkaziladi. Savollar, o'quv topshiriqlar tizimi, uzoq muddatli munozara, og'zaki yoki yozma hisobot kabilar davriy nazorat metodlari hisoblanadi. Yakuniy nazorat - o'quv fani to'liq o'rganilgach, chorak oxirida, o'quv yili so'ngida tashkil etiladi. Unda o'quv fani mazmunini o'ziga to'liq qamrab oladigan metodlardan foydalaniladi. O'quv fani doirasida qo'llangan termin va tushunchalarga (og'zaki yoki yozma) izoh yozish, o'quv faniga oid yetakchi g'oyalarni hayotga, ishlab chiqarish, amaliyotga tatbiq etish, o'quv fanining inson hayotida tutgan o'rnini baholash, o'quv fani doirasida o'rganilgan nazariy va amaliy bilimlariga o'z munosabatini bildirish kabi metodlar nazoratning samaradorligini oshiradi. O'quvchilar miqdoriga ko'ra nazoratning uch xil ko'rinishi mavjud: individual tekshirish-alohida o'quvchiga mo'ljallangan nazoratdir. A'lochi o'quvchiga mo'ljallangan o'quv topshirig'i o'rtacha tayyorgarlikka ega bo'lgan bola uchun qiyin bo'lganidek, o'rta o'zlashtiradigan o'quvchi uchun tuzilgan o'quv topshirig'i a'lochi o'quvchi uchun juda ko'p sanaladi. Ko'rinadiki, individual nazorat har bir o'quvchining bilimi, tayyorgarlik darajasiga qarab tayyorlanadi. Demak, individual nazorat metodi sifatida tanlangan suhbat, savol, topshiriq, mustaqil ish, laboratoriya mashg'uloti va shu kabilarning bajaruvchi-ijrochisi oldindan belgilanadi. Tabaqalashgan nazorat-sinf jamoasini bilim, malakalarni o'zlashtirish darajasi, real bilish imkoniyatlariga qarab kichik jamoalarga ajratish va jamoalarning har biriga mos metod, vosita tanlab tekshirishni o'tkazishdir. Sinf o'quvchilari, ularning individual xususiyatlari asosida kichik jamoalarga ajratiladi. Eng yuqori darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'ta murakkab, yaxshi o'qiydigan o'quvchilar jamoasi nisbatan oson, past o'zlashtiruvchilar jamoasi esa yanada osonroq topshiriqlarni, mustaqil ishlarni bajaradi. Yalpi nazorat-sinf jamoasining barchasiga mo'ljallangan tekshirishdir. Masalan, diktant shunday metodlar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azatbaevna, S. S. (2020). THE ISSUE OF STYLIZATION OR USING NATION'S ORAL WORKS IN KARAKALPAK POETRY DURING THE PERIOD OF





INDEPENDENCE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(4), 59-65.

2. Azatbaevna, S. S. (2023). THE ATTEMPTS OF CURRENT KARAKALPAK POETRY TO ACHIEVE THE LEVEL OF WORLD POETRY.

3. Azatbaevna, S. S. (2023). THE ATTEMPTS OF CURRENT KARAKALPAK POETRY TO ACHIEVE THE LEVEL OF WORLD POETRY.

4. B. Ziyomammedova, Sh. Abdullaeva. Pedagogika. - T.: « O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, 2000.

5. R. Mavlonova va boshqalar. Pedagogika. - T.: « O'qituvchi» 2001.

6. Musulmanova, N. R. (2020). Struktura obshego znacheniya kategoriy vremeni i nakloneniya v uzbekskom yazike. Vestnik nauki i obrazovaniya, (2-1), 80.

7. Мусулманова, Н. Р. (2023). О НЕКОТОРЫХ ПРОБЛЕМАХ ЯЗЫКОВЫХ ЯРУСОВ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ИНОЯЗЫЧНЫХ ГРУППАХ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1301-1306.

8. Мусурмонов, Р. (2014). Узлуксиз таълим тизимида педагогик тажриба-синов ишларини ташкил этиш механизмлари. Тошкент:“Ўз. Р. ПФИТИ” нашриёти-2014.

9. Мусулманова, Н. Р. (2023). ЛИНГВОПОЭТИКА-ТИЛ ВА АДАБИЁТ МУШТАРАКЛИГИ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 962-967.

10. Uralovna, B. Z. (2023). The Place of the Uzbek Language in the World Community. Genius Repository, 25, 35-37.

11. FAYZULLAEVA, S. U. THEMATIC DIRECTIONS OF THE NATURE OF THE LYRICAL EVENING. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (5), 157-159.

12. Zakirovich, G. B. (2023). THE MAIN FEATURES OF KINESTHETIC STYLE IN LEARNING PROCESS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5), 61-69.

13. Gafurov, B. Z. (2023). ADVERTISEMENT TEXT AS A WAY OF INFLUENCE ON THE AUDIENCE. Academia Science Repository, 4(5), 443-448.

14. qizi Tursunova, M. A., & qizi Shodieva, G. N. (2023). MAIN INFLUENTIAL FACTORS TO LANGUAGE LEARNING PROCESS. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 1181-1183.





15. Yusupova, S. A. Z., & kizi Shodieva, G. N. (2023). SOME ASPECTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. GOLDEN BRAIN, 1(1), 300-304.
16. Shodieva, G. (2023). ANALYSIS OF TRANSPOSITION OF WORD GROUPS. Science and innovation, 2(C9), 28-30.
17. Tursunova, M., & Qizi, S. G. N. (2023). NAVIGATING ETHICAL DILEMMAS IN BUSINESS DISCOURSE: AN EXPLORATION OF DISCOURSE ETHICS. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 687-690.
18. qizi Shodieva, G. N., & Dusmatov, H. H. (2022, July). PRINCIPLES OF DIVISION OF WORD CATAGORIES IN UZBEK LANGUAGE. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 11, pp. 38-43).
19. Usmanova, D., & Shodieva, G. N. K. (2022). Issues of classification of word catagories in the Uzbek language. Academic research in educational sciences, 3(6), 1276-1280.
20. Do'smatov, H., & qizi Shodiyeva, G. N. (2022). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO 'ZLARNI TURKUMLARGA AJRATISH TAMOYILLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(8), 771-775.
21. Najmiddinovna, R. Z., & Najmiddinovna, R. K. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 19-21.
22. Dusmatov, H. H. (2022). PRINCIPLES OF DIVISION OF WORD CATAGORIES IN UZBEK. RESEARCH AND EDUCATION, 38(10), 5-6.
23. www.ziyouz.co'l

